

## POETIK NUTQDA UNLILAR FONOGRAFIK VOSITA SIFATIDA

*Dildora Yunus qizi Yusupova,*

*Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi*

*va jurnalistika kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)*

*e-mail: [yuldasheva21dilorom@gmail.com](mailto:yuldasheva21dilorom@gmail.com)*

*ORCID ID ORSID 0000-0002-6163-9567*

**ANNOTATSIYA** Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratish muhim. Zero, poetik matnda nutq tovushlarining estetik-emotsional imkoniyatlari tez va oson idrok etiladi. Sababki, ijod to'lg'og'ida haqiqiy shoir tomonidan yaralgan she'riy matnda o'ziga xos jozibadorlik, nutqning boshqa biror ko'rinish-u shakllarida takrorlab bo'lmis ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikni ta'minlashga nutqning eng kichik birliklari bo'lmish nutq tovushlarini tovlantirib, o'rni bilan topib-topib, chertib-chertib qo'llash orqali erishiladi.

**Kalit so'zlar:** *lingvopoetik tahlil, poetik nutq, fonetik birlik, estetik xususiyat, konnotativ vazifa, fonostilistik vosita*

**АННОТАЦИЯ** В процессе лингвопоэтического анализа художественного текста важно обратить особое внимание на эстетические свойства фонетических единиц. Ведь в стихотворном тексте быстро и легко воспринимаются эстетико-эмоциональные возможности звуков речи. Это потому, что поэтический текст, созданный настоящим поэтом в муках творчества, имеет свое очарование и тон, которые невозможно повторить ни в какой другой форме речи. Обеспечение этой мелодичности достигается за счет использования звуков речи, которые являются мельчайшими единицами речи.

**Ключевые слова:** *лингвопоэтический анализ, поэтическая речь, фонетическое единство, эстетическая особенность, коннотативная задача, фоностилистический инструмент*

**ANNOTATION** In the process of linguapoetic analysis of a literary text, it is important to pay special attention to the aesthetic properties of phonetic units. Indeed, in a poetic text, the aesthetic and emotional possibilities of speech sounds are quickly and easily perceived. This is because a poetic text, created by a real poet in the throes of creativity, has its own charm and tone that cannot be replicated in any other form of speech. Ensuring this melody is achieved through the use of speech sounds, which are the smallest units of speech.

**Keywords:** *linguapoetic analysis, poetic speech, phonetic unity, aesthetic feature, connotative task, phonostylistic tool*

Fonografik uslubiy vositalarning tasnifi, konnotativ vazifalarini tadqiq etgan olim G.Yaxshiyeva talaffuzda undosh tovushlarni ikkilantirish, takror qo'llash, tushirib qoldirish, so'zda ularning o'zaro o'rnini almashtirish, yozma nutqda esa ushbu talaffuziy hodisalarni aynan aks ettirish fonografik jihatdan muhim uslubiy ahamiyatga egaligini ta'kidlasa [3], A.Haydarov [4] tovushlar bilan bog'liq fonostilistik vositalarda uslubiy imkoniyatlar ko'pligi, ayrim so'zlarning ohang va fonetik qiyofasini o'zgartirish orqali hissiy ta'sirchanlik paydo bo'lishini qayd etadi. She'riyatda, asosan,

*assonans* (unlilar takroriga asoslanadi),

*alliteratsiya* (undoshlar takrori bilan bog'liq),

*geminatsiya* (undoshlarning qavatlanishi orqali yuzaga keladi)

kabi fonetik usullardan foydalaniladi [1].

Nasriy asarlarda ham, poetik nutqda ham fonopoetik usullar, jumladan, unli va undoshlarni cho'zish, takrorlash, qavatlash, hatto leksik birliklarni noto'g'ri talaffuz qilish orqali ekspressivlikni ta'minlashga erishiladi. Nutq tovushlarining uslubiy imkoniyatlari ishga solinadi. Og'zaki nutqda ularning fonostilistik imkoniyatlarni istagancha voqelantirish mumkin bo'lgani holda, yozma nutqdagi kabi ifodalash imkoni bo'lmaydi. Shunga qaramay og'zaki talaffuz va yozma bayon mutanosibligiga fonografik vositalar ko'magida bir qadar erishish mumkin. Manbalarda keltirilishicha,

yunon olimlarining fikrlari dunyo bo‘ylab tarqalgan zamonlardayoq so‘zning talaffuz tarzi va uni yozuvga xuddi talaffuzdagidek ko‘chirish muammosi soha vakillarining diqqat-e’tiborida bo‘lgan. Garchi notiqlik san’ati uchun muhim sanalmasa-da, so‘z tarkibining nomemasi uning talaffuzi bilan aloqador ohanglar uyg‘unligi bog‘liq, deb hisoblangan va buni yetuk faylasuflar ham inkor etishmagan. Ular so‘z tarkibini tashkil etuvchi harflarda o‘ziga xos mazmun va ohang garmoniyasi borligini isbotlashga urinishgan. Jumladan,

- i** – sillqlik, yaltiroqlik, viqor ramzi,
- r** – tezlik, shiddatkorlik ramzi,
- i** – torlik ifodachisi,
- a** – kenglik va kattalikni ifodalay oladi,
- e**– abadiyat belgisi tarzida talqin etilgan.

Tovushlar tabiati bilan qiziquvchi mutaxassislar keyinchalik **u, d, r** tovushlari dahshatni yodga soluvchi, **i** xursandchilik uyg‘otuvchi, **m, n, i** tovushlari va ularning yozuvdagi ifodasi esa nazokatlilikni ifodalay oluvchi sirli ramzlar ekanligi haqida o‘z mulohazalarini bayon etishgan. Nutq tovushlariga, ayniqsa, ularning yozma ifodasi bo‘lgan “harflarga bu tarzda ma’no yuklash, albatta, ilmiy asosga ega emas. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o‘ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo‘lish, xafagarchilik, rozilik, norozigarchilik, taajjub, yalinish, esankirash, ikkilanish, hayratga tushish, qochiriq, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so‘roq, ta’kid, qoniqmaslik, norozilik, norizolik, tilak-istak, qo‘llash-quvvatlash kabi qator holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – fonografik vositalardan foydalanadilar” [2].

Bu kabi holatlar, odatda, o‘z semantikasiga ega bo‘lmagan, ammo uslubiy ahamiyati muhim bo‘lgan fonologik (differensial) birliklar bilan ishlash jarayonida sodir bo‘lishi mumkin.

**1.Unlilarni birdan ortiq yozish** orqali ijodkor aytmoqchi bo‘lgan yoki aytayotgan fikr, odatda, lirik qahramonning voqelikka munosabati sifatida

voqelantiriladi. Soha adabiyotlarida shunday usul asosida belgining me'yordan ortiq yoki kuchsiz ekanligini ifodalashda foydalanilishi ta'kidlanadi. Fikrimizni dalillash uchun Halima Xudoyberdiyeva she'rlariga murojaat etamiz.

**Belgining kuchsizligi, davomiyligi:** “Tomirida To‘maris qoni oqayotgan” shoira maydondan qochib erka tuyg‘ularga panalamaydi. U faqatgina intim hislarga ham bog‘lanib qolmaydi. Yuragida “ona arslon in qo‘ygan” shoira otasi, onasi kabi oddiy mute inson sifatida “tiz cho‘kkancha yashab” o‘tmoqqa aslo ko‘nmaydi. U butun elda, yurtda erk shamoli esishini istaydi. Ijodkor istak-xohish bilan cheklanib chetda tomoshabin bo‘lmoqchi emas. U yalov tutib g‘aflatdagi yurtdoshlarini uyg‘otmoq uchun yaratgandan “Turk, Turonni ko‘tarmoqni o‘zimga ber” deb iltijo qiladi.

*Otam, onam ko‘ngli yig‘lab, bo‘sha-a-b o‘tdi,*

*Otam, onam yog‘iyga par to‘sha-a-b o‘tdi,*

*Otam, onam tiz cho‘kkancha yasha-a-b o‘tdi,*

*Xudo, endi madoringni tizimga ber.*

*Ko‘klamlarim taloshlarda talo-o-n bo‘ldi,*

*Uvuz etda kuydim, yig‘i, o‘la-a-n bo‘ldi,*

*Yozim–balog‘atga etgan nolo-o-n bo‘ldi,*

*Endi ozod qo‘shiqlarni kuzimga ber.*

*Soviy-soviy muzlagan dil muzliklarim,*

*Eriy boshlab so‘z ochmoqda so‘zliklarim.*

*Qaytsa, qaytmas bo‘lib ketgan o‘zliklarim,*

*Turk, Turonni ko‘tarmoqni o‘zimga ber.*

(“Turk, Turonni ko‘tarmoqni o‘zimga ber” she‘ridan)

She‘r misralarida qofiya tarkibida unlilarni birdan ortiq yozish shu so‘z ifodalayotgan leksik mazmunga qo‘shimcha davomiylik ma’nosini ham yuklaydi va unda ohangdorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yana bir misol:

*Otam qurgan o‘sha hovli, o‘sha uylar,*

*Siz ketgach, so‘ng o‘h-ho‘-o‘... yomon huvilladi.*

*O‘ychan shotut. Mo‘ltiragan qo‘zi-qo‘ylar,*

*Xomush Sizni izlaganday tuyiladi. («Onam xotirasiga» she‘ridan)*

Sie‘rning ikkinchi misrasidagi (*o‘h-ho‘-o‘...*) **o‘** unlisining cho‘zilishi, takror ishlatilishi matnda ifodalangan mazmunga ijodkorning ichki tug‘yonlarini (*tuzalmas dard, bir umrlik armon, katta yo‘qotish* kabi) qo‘shib ifodalash imkonini bergan. Shuningdek, unlining cho‘ziqligida belgining kuchsiz, ammo og‘riqli davomiyligi seziladi.

**Belgining ortiqligi:** Halima Xudoyberdiyeva shunchaki she‘rparast emas yoki vatan haqida jimjimador misralar yozib o‘z yozganlarining ketidan kerilib yuradigan shuhratsevar ham emas. U vatanini, elini butun borlig‘i bilan sevishini tabiiy hol deb hisoblaydi, o‘zini uning bir parchasi, o‘zligi deb biladi. Shuning uchun ham u yurtini, xalqini asrash uchun:

*Mendan qay ish lozim bo‘lsa,*

*Barchasiga tayyorman!*

deb xitob qiladi. Bu ijodkor – xalqparast. Bu shoira– yurtparast. Nega?! Chunki u uchun turkiy eli “*iymoni(m)ga o‘rab yurgan boyligi(m)*”: shoiraning yozganlari “*eli(m)ning jon-jigariga ko‘zmunchoq*”, u shu yurt, shu el uchun “*boshdan oyoq HURLIKni kiy*”gan. Shu boisdan shoira xudodan ham, avvalo, eliga, yurtiga omonlik tilaydi va junbishga kelgan tug‘yonlarini shunday yozadi:

*Dilda o‘sib, nurab yurgan boyligim,*

*Bor dunyodan so‘rab yurgan boyligim,*

*Iymonimga o‘rab yurgan boyligim,*

*Turk elimni shafqatingga **zo-o-r** qilma.*

*Bor yumushim bitib, ketar mahalim,*

*Nuray-nuray yitib ketar mahalim,*

*So‘ray-so‘ray o‘tib ketar mahalim,*

*Iltijom shu: “Turkistonni **xo-o-r** qilma”.*

(“Iltijom shu” she’ridan)

Inchunun, poetik matnda unilarni birdan ortiq yozish usulidan asar qahramoinig biror narsadan afsuslanishi, hayratlanishi, taajjubga tushishi kabi holatlarni ifodalashda ham foydalaniladi. Masalan,

*O-o-o-o...Allaqachon unutdim bari-barini,  
“Allaqachon” aldamayman men o‘zimni o‘zim.  
Ortda qolgan muhabbatning qo‘shiqlarini,  
Eslatma, deb o‘z-o‘zimga tilayman to‘zim...*

(“Unutgan ma’qul” she’ridan)

*O‘rtoqlarim joni po‘lat, joni qil,  
Biri sariq, biri kamqon, biri sil  
Hali **u-z-o-oq** davolanar, **uzo-oq** yil  
O‘lmay qolsa bo‘ldi. Qayta bo‘lmas moh*

*Qo‘llarimning kishani yo‘q, yo Oллоh!* (“So‘nggi oh” she’ridan)

Ushbu fonografik usuldan poetik matnda yoki umuman badiiy matnda chaqiriq, xitob, undash, tinglovchi e’tiborini jalb etish, hatto istehzo qilish, achchiqlanish holatlarini ifodalash uchun ham ishlatilganligini kuzatamiz. Shoira “Sulton, qaroringni ber!” nomli she’rini Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti” kitobidagi quyidagi lavhadan ta’sirlanib yaratadi:

“Bu fojialardan ko‘p ta’sirlangan sultonning onasi, ahli ayoli unga yukindi: “Allohni o‘rtaga qo‘yib iltijo qilamiz. Bizni o‘zing o‘ldirib asirlikdan qutqar!” U noiloj barchasini suvga cho‘ktirishni amr etdi”. Dunyoda haqiqiy erkak zoti borki, onasini, ahli ayolini har qanday sharoitda har nedan, har qanday xavfdan, hatto begona nazardan ham himoya etadi. Bilamiz, yurt, millat qayg‘usi jismi joniga singgan milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdi onasi, ahli ayolini dushman iskanjasidan qutqarmoq uchun ularning hayotiga o‘zi nuqta qo‘yish amrini berishga majbur bo‘ladi. Halima Xudoyberdiyeva Jaloliddin Manguberdining ilojsiz, ammo o‘sha vaziyatdagi eng to‘g‘ri qarori bugun bizga ham zarurligini aytadi. Yo‘q, u buni shunchaki aytmaydi. Bugunning

beparvolariga istehzo bilan aytadi: yurtning har bir erkagi Jaloliddin sulton, har bir ayoli uning oqila zavjasi, mard onasi kabi bo'lishini istaydi. Yurt, uning har siqim tuprog'i uchun o'zidan, yurtdoshlaridan jonfidolik so'rab shunday yozadi:

*Sulton, qahringni ber,*

*Qahrlanaylik,*

*So'kilsin osoyish ko'ngilning choki.*

*Sulton, zahringni ber, zaharlanaylik,*

*Bemormiz, bu zahar sog'aytsin toki.*

*Yoronlar!*

*Biz ham **bi-i-ir** sultonlanaylik*

*Uning yo'lbars ruhini o'zga o'tkarib,*

*Bo'laylik sultonga suyukli qayliq,*

*Sultonning onasi bo'laylik, g'arib...*

*Hatto*

*Xayolidan boryapman o'rlab,*

*Bizda-da **bi-i-ir** yashab, ko'karsin sulton.*

*Dunyoga larzalar solarak gurlab,*

*Turkiy qavmlarni ko'tarsin sulton!*

*Qodir Alloh,*

*Bir bor kechsin shunday hol,*

*Keyin,*

*Keyin mayli, ne g'am chekirsin,*

*Yog'iy oyog'ida qilmasdan poymol.*

*Bizni onasiday...*

*Xotiniday bizni...*

*Daryo suvlarida o'zi cho'ktirsin.*

Ha, har na etsa, Vatan etsin, Yurt etsin, "yog'iy oyog'ida qilmasdan poymol".

Shoira beparvo kun o'tkazmoqni yashash deb bilmaydi. Shu boisdan ham beparvolarga

istehzo etayotganligini she'r bandida bir necha o'rinda unilarni cho'zish orqali ifodalaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.–Т.: Фан, 2007.–125 б.– 31-б.

2. Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлиliga бағишланган янги тадқиқот ҳақида//Филология.10-чиқиш. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010.

3. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар: Филол.фан.ном... дисс.автореф.– Т.,1997. –25 б.

4. Ҳайдаров А. Бадий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс.–Т., 2008. – 158 б.

5. **Yuldasheva D.N., Yusupova D.Y.** The value of silence in speech communication// XVI International Scientific-Practical Conference “Actual Problems of Improving Farming Productivity and Agroecology” (IPFA 2024). –E3S Web of Conferences 538, 05030 (2024).–14 June 2024. [https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2024/68/e3sconf\\_ipfa2024\\_05030/e3sconf\\_ipfa2024\\_05030.html](https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2024/68/e3sconf_ipfa2024_05030/e3sconf_ipfa2024_05030.html)

6. **Yuldasheva D.N.** Silence is an expression of inner speech// AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (ISSN (E): 2993-2769). – Volume 01, Issue 10,2023.–230-234.

7. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020. <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>

8. Yuldasheva D. Professionalные frazeologiya (Professional Phraseology). International conference on academic studies in philology (BICOASP) 26-28 September 2019 Bandırma <https://d1wqtxts1xzle7.cloudfront.net/60539392/>



9. Yuldasheva D. Nutqiy muloqotda sukutning o‘rni. [Образование i innovacionные issledovaniya](#). Tom 1 № 1 (2020). <http://interscience.uz/index.php/home>
10. **Yuldasheva D.N.** Silence is an expression of inner speech// AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (ISSN (E): 2993-2769). – Volume 01, Issue 10, 2023.–P. 230-234. <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1922>
11. Yuldasheva D.N. Из истории изучения феномена тишины// Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia. Date: 11<sup>th</sup> December, 2023. (ISSN: 2835-5733). 21-26-p. <https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/3086>
12. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Silence-is a nonverbal unit of speech communication. American Journal of Research, 2020, 11-12 issue of the Journal.– Pag.87-95. [https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/12/2020\\_11\\_12-AJR\\_11.pdf](https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/12/2020_11_12-AJR_11.pdf)
13. Yusupova D. Poetess Khalim Khudoyberdieva and his skill in use of the word. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021.–Pag.238-241. <http://oaji.net/articles/2021/679-1612639322.pdf>
14. Dildora Yunus kizi Yusupova. About Polisemantic Words (on the example of the poems of the Uzbek poetess Khalima Khudoyberdiyeva). Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN ISSN 2694-9970. Pag.384-389. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/367>
15. Yusupov Dildora Yunus qizi. Shoir so‘z aytgani kelar dunyoga...(Shoira Halima Xudoyberdiyevaning hayot va ijod yo‘liga chizgilar). «Сўз санъати» халқаро журнали. –2021, 1-сон, 4-жилд. –В.: 21-28. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/377>